

Xurramova Nozima

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  
Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 1.Kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sergey Tolstovning hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari olim tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar, ilmiy ekspeditsiyalar va ilmiy maqola, yozgan asarlari haqida ham bir qancha ma'lumotlar mavjud. Qaysi lavozimlarda ishlaganligi, qanday qilib Xorazm o'lkasiga qiziqishi paydo bo'lganligi kabi ma'lumotlar ham shular jumlasiga kiradi.

**Annotation:** This article contains information related to the life and work of Sergei Nikolay Tolstov. In addition, there is some information about scientific expeditions, scientific articles, works written by the scientist. This includes information such as what positions he worked in, how he became interested in the land of Khorazm.

**Аннотация:** В данной статье собраны сведения, связанные с жизнью и творчеством Сергея Николая Толстова. Кроме того, есть информация о научных ученым. Сюда входит такая информация, как на каких должностях он работал, как он заинтересовался землей Хорезм.

**Kalit so'zlar:** Akademik, ilmiy ekspeditsiya, Xorazm, arxeolog, etnograf, tarixchi mutaxassis, O'rta Osiyo, ilmiy ish,fan arbobi, tadqiqotchi.

Demak o'lkamiz tarixini o'rganmoqchi bo'lgan va unga qiziqish uyg'otgan olimlar talaygina bo'lgan. Asli Xorazmlik bo'lmasada o'lka tarixini o'rgangan, u haqida ilmiy maqolalar yozgan olimlar kam. Ana shunday o'lka tarixini o'rganmoqchi bo'lgan olimlardan biri bu Tolstov hisoblanadi. Biz bilamizki Sergey Nikolay Tolstov mashhur arxeolog va etnograf sanaladi. U juda ham ko'p xalqlarning tarixi, etnografiyasi va arxeologiyasi bo'yicha mutaxassisdir. Bundan tashqari bir nechta asarlar va ilmiy maqolalar muallifi, arxeologiya va etnografiya bo'yicha bir qancha ekspeditsiyalarning tashkilotchisi hisoblanadi. Tolstov O'rta Osiyo xalqlari tarixi, qoraqalpoq xalqlari tarixi, etnogenezi, madaniyati bo'yicha tadqiqotchi va xorazmliklarning kashfiyotchisidir. Qisqacha qilib aytganda Tolstov etnografiya instituti direktori, sharqshunoslik instituti direktori va bosh ilmiy xodimi, SSSR Fanlar akademiyasi Prezidiumining kotibi, shuningdek, etnografiya kafedrasи mudiri va Moskva davlat universitetining tarix fakulteti dekani, O'zbekiston Fanlar akademiyasining faxriy akademigi ham hisoblanadi. Olim ushbu natijalarga tinimsiz olib borgan ilmiy izlanishlari, tur xildagi ekspeditsiyalari, ilmiy asarlari va maqolalari orqali erishgan. Olimning O'rta Osiyoga nisbatan mehri bolaligidan boshlab paydo bo'la boshlagan. U yoshligida sharq haqida eshitgan ertag-u afsonalari ham bunga sabab bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga yana bir asosiy sabablardan biri ba'zi olimlarning sharqga nasbatan noto'g'ri fikrlari ham bo'lgan. Aynan shu sababli Tolstov O'rta Osiyo xususan, Xorazm tarixini

o'rganadi. U sovet davridagi eng yirik ilmiy ekspeditsiyalardan biri Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining tashkilotchisi va rahbaridir. U qadimgi Misr va Yunoniston kabi qadimiy sivilizatsiyalardan biri bo'lgan Xorazm sivilizatsiyasini ochgan. Ko'plab qazishma ishlari olib borgan. U yerdan esa hayratlanarli topilmalar jumladan, haykallar va rasmlar topgan ularni o'rgangan. Ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tish joizki hozirgi kunda topilgan topilmalar Ermitaj muzeyida saqlanmoqda. Sergey Pavlovich Tolstov butun umri davomida 300 dan ortiq ilmiy ishlar yozgan. Ulardan eng yiriklari "Qadimgi Xorazm" va "Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi tarixi" nomli monografiyalari bo'lib, Davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Bir qancha faxriy nomlar va unvorlarga sazovor bo'lgan.

Sergey Pavlovich Tolstov 1953-yilda SSSR Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi, 1956-yilda O'zbekiston fanlar Akademiyasining faxriy akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi, Tojikiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarida xizmat ko'rsatgan fan arbobi. U bundan tashqari 1929-1936-yillarda SSSR xalqlar muzeyida ilmiy xodim, 1939-1951-yillarda Moskva universiteti Tarix fakultetining etnologiya kafedrasi mudiri, 1942-1966-yillarda SSSR Fanlar akademiyasi Etnografiya instituti direktori, ko'p jildli "Jahon xalqlari" kitobi muallifi va muharrirlaridan biri sanaladi. 1937-1969-yillarda Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasining tashkilotchisi va rahbari. O'rta Osiyo xalqlari arxeologiyasi, ibridoiy, qadimiy va o'rta asr din tarixi, ijtimoiy tuzumi, etnogenezi bo'yicha ZOOdan ko'proq ilmiy ish muallifi. Tolstov antropologiya instituti va boshqa ko'pgina chet el ilmiy tashkilotlari faxriy a'zosi.<sup>22</sup> Tolstov shunday katta bir bilim egasi bo'ladiki ko'plab talaba yoshlari iste'dodli olimning shogirdi bo'lishni xohlar edi. Hattoki ular orasida Xorazmlik Iso Jabborov ham bo'lgan. U Tolstov haqida shunday deb yozadi: Uning yoqimli ovozi va boy ma'noli nutqi hali-hamon quloqlarim ostida jaranglaydi. Hattoki Tolstov mening Xorazmlik ekanligimni bilib u bilan uchrashishimni va uning ekspeditsiyasida tarjimon yoki laborant sifatida qatnashishga taklif qildi. Men esa bu taklifdan hursand bo'lib agarda siz mening ilmiy maslahatchim bo'lishga rozi bo'lsangiz men ham roziman deb javob qaytardim deydi.<sup>23</sup> Tolstov bundan tashqari o'zining xotiralarida shunday yozadi: "Men bolaligimdan yer shari xalqlari madaniyatni va hayoti bilan shug'ullanib, etnografiya fanini o'rganishga, etnografiyaga oid kitoblarni, ayniqsa XIX- asrning ajoyib asarlarini o'zlashtirishga intildim degan edi. Tolstovning Xorazmga sayohat qilishining yana bir asosiy sabablari bor edi. U talabalik davrida xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganish jarayonida Volgabo'yи xalqlari etnografiyasini o'rganishga kirishadi. Uning bor e'tibori shu

<sup>22</sup> Древняя культура Узбекистана / АН СССР, Узбекистан. филиал. Ин-т языка, лит-ры и истории. — Ташкент: Изд-во УзФАН, 1943. — 40 с.

Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. — М., 1948. — 352 с.

По следам древнехорезмийской цивилизации. — М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1948. — 328 с.

По древним дельтам Окса и Яксарта / Институт этнографии им. Н. Н. Миклухо-Маклая. — М.: Изд-во вост. лит. 1962. — 324 с.

<sup>23</sup> Иса Жабборов. *Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки)* Москва 2014.19-b.

xalqlarning moddiy va ma'naviy hayot tarzini o'rganishga qaratilgan edi. Ma'lum bo'lishicha bu xalqlar madaniyatining ko'pgina unsurlari qadimdan O'rta Osiyo madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bugungi kunga kelganda esa mamlakatimiz xalqlarining madaniy aloqalari hozirgi kundagi xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Tolstov Xorazmga qiziqishi o'lkada uzoq vaqt davomida G'arb va Sharq o'rtasidagi munosabatlar tarixi buzib ko'rsatilganligi va sharq xalqlari taraqqiyotga qodir emas degan g'oya ilgari surilganligi ham asosiy sabablardan biri bo'lgan.<sup>24</sup> Olim juda ham ko'p yillik umrini ekspeditsiyaga sarflaydi. Aynan Xorazm ekspeditsiyasining dastlabki yigirma yilllik faoliyatining umumlashtiruvchi natijalari "Qadimgi Xorazm", "Qadamgi Xorazm sivilizatsiyasi izlaridan" kabi fundamental asarlarida, poytaxt monografiyasida o'z aksini topgan. Uning bundan tashqari "Oks va Yaksartning qadimgi deltalariga" asari ham dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan, shuningdek, ekspeditsiya asarlari va bir qator maqolalar to'plamlari ham shular jumlasiga kiradi. Tolstovning eng muhim kashfiyotlaridan biri xalqimiz tarixida unitilgan davrning tiklanishidir. Xorazmda qilingan kashfiyotlar nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun jahon ilm-fani uchun katta ahamiyatga egadir. Bu kashfiyotlar bir qator G'arb olimlarining bu yerda quidorlikning "islomgacha bo'lgan davrida" hukmronlik qilish to'g'risidagi fikrlarini inkor etadi.<sup>25</sup> Xorazm va boshqa hududlardagi ekspeditsiyalar O'rta Osiyo xalqlari qadimda o'ziga xos madaniyat yaratganligini ishonchli isbotladi. Xorazm kompleks arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan urushdan keyingi 50 yil davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasida erishilgan muhim ilmiy kashfiyotlar Sergey Tolstovning 400 ta ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.<sup>26</sup> Biz yuqorida aytib o'tganimizdek ba'zi manbalarda Tolstovning ilmiy ishlari 300 ta deb ham berilgan. Xorazm ekspeditsiyasining yana bir muhim yutug'i ko'p qatlamlı qadimiy yodgorliklarni tadqiq qilish bilan birga aviatsiya va quruqlik yo'llaridan foydalanish, keng ko'lamlı kartografik ishlar orqali qadimiy sug'orish yerlarining beba ho'sxemalari va xaritalari yaratilishi bo'ldi. Arxeologik yodgorliklarni o'rganish uchun havo yo'llarining uzunligi taxminan 9000 km edi. Bir necha ming aerofotosuratlarni o'rganish tufayli 250 dan ortiq qadimiy shahar va qishloqlar topib o'rganiladi. Xorazm ekspeditsiyasi rahbari Tolstov shunday deb yozgan edi: "Biz O'rta Osiyoga Islom kelishidan oldin ijtimoiy tuzum qanday edi, degan savolga duch keldik". Ushbu materiallarni o'rganish natijasida 1940-yillarning oxiriga kelib ushbu muammo bo'yicha dastlabki xulosalar chiqarish imkoniyati paydo bo'ldi.<sup>27</sup> Tolstovning hayoti va faoliyati to'g'risida uning shogirdlari ham qisqacha

<sup>24</sup> Иса Жабборов. *Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки)* Москва 2014.20-b.

<sup>25</sup> Иса Жабборов. *Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки)* Москва 2014.23-b.

<sup>26</sup> Иса Жабборов. *Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки)* Москва 2014.26-b.

<sup>27</sup> Иса Жабборов. *Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки)* Москва 2014.27-b.

bo'lsada ma'lumot berib o'tishgan.Uning shogirdlari tomonidan yozilgan asarlar olim va uning ekspeditsiyasi hayotda qanday bo'lgani va izdoshlari xotirasida qanday saqlanib qolganligini to'liq his qilish imkonini beradi. Biz yuqorida aytib o'tgan Iso Jabborov ham uning shogirdi edi. U ustozining amalga oshirgan ishlari to'g'risida ma'lumot bergen va asar ham yozgan.Xorazm ekspeditsiyasining 40 yilligiga bag'ishlangan yubeliyda uning shogirdi va vorisi Maryana Aleksandrovna Itina tomonidan ikkita maqola taqdim etiladi. U Xorazmga amalga oshirilgan ekspeditsiya va uning asoschisi Tolstov haqida bo'ladi.Taqdim etilgan ikkita maqola ham mohiyatan bir mavzuda yozilgan bo'lib, bir-birini to'ldiradi, nafaqat olim va uning ekspeditsiyasining fan sohasidagi o'rni va ahamiyatini ham ochib beradi.Ular bizga olim va uning ekspeditsiyasi hayotda nima bo'lganligini, talabalar va izdoshlar xotirasida qanday qolganligini his qilish imkonini beradi. M.L.Itina ham Tolstov haqida shunday fikr bildiradi: U bizning jamoamizni yaratdi va ularni hamfikirlikda saqlab qola oldi. Jamoamizning bosh a'zosi uning o'zi edi. U Xorazmga nisbatan bizga shunaqangi mehr uyg'otdiki biz Xorazmni oxirgi soniyagacha tark eta olmadik. Bizda o'lkaga nisbatan o'zgacha ishtiyooq va muhabbat paydo bo'ldi degan fikrlarni aytib o'tadi. S.A.Yatsenko esa 2007-yil yanvar oyida O'rta Osiyo yodgorliklarini o'rgangan mashhur arxeologlardan biri Sergey Pavlovich Tolstov tavalludining 100 yilligi nishonlandi deb yozadi.<sup>28</sup>

Bir paytlar Moskva davlat universiteti arxeologiya kafedrasи professori A.V.Artsixovskiy baxtli arxeolog olimlar borligini aytadi. Ular orasida esa Tolstov ham bor edi. Sergey Pavlovich Tolstov ishonchli tarzda birinchilar qatoriga kirishi mumkin, ammo bu yetarli emas. Xorazm zaminidagi eng yirik kashfiyotlar muallifi va ilhomlantiruvchisi Sergey Pavlovich Tolstovning qilgan tadqiqotlari unga jahon shuhratini keltirdi. O'lka zaminida ish olib borgan barcha ekspeditsiya a'zolari taxminan 40-50- yil davomida bir butun bo'lib shu sohada ish olib borishdi. Ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tish kerakki Tolstov barcha rasmiy hujjatlarda o'zini etnograf, sharqshunos va eng muhimi arxeolog deb atagan. Gumanitar fanlar bo'yicha keng bilimga ega va albatta, katta este'dod egasi bo'lgan Sergey Pavlovich o'zining barcha ilmiy loyihalarida tabiiy fanlar ma'lumotlaridan keng foydalangan va o'z tadqoqotiga turli mutaxassislik olimlarini jalb qilgan.<sup>29</sup> Tolstov nafaqat yuksak iqtidorli olim, balki ajoyib ilmiy tashkilotchi ham edi. Uning asosiy ishtiyoqi Xorazm dala izlanishlari edi. U topib o'rgangan yodgorliklarda vayronagarchilik izlari bor edi. Bunga vaqt omili ham sababdir. Ko'plab yodgorliklarni xom g'ishtdan qurilganligini hisobga olsak bu tabiiyidir. U Xorazmdagi qadimiy sug'orish yerlariga ilk bor kelganda, ko'rgan narsalarini haqiqatga to'g'ri kelmasligini ko'radi, buni hatto siz va biz ham ko'rishimiz mumkin. <sup>30</sup> Shunday qilib uning Xorazmdagi ilmiy izlanishlari shu tariqa davom etadi

<sup>28</sup> С.П.Толстов, И Хорезмская экспедиция. Туркестанская библиотека.4-б.

<sup>29</sup> С.П.Толстов, И Хорезмская экспедиция. Туркестанская библиотека. 5-б.

<sup>30</sup> С.П.Толстов, И Хорезмская экспедиция. Туркестанская библиотека.6-б.

ba o'ziga xos tarzda ekspeditsiya amalga oshiriladi. Xorazm ekspeditsiyasi 70-yildan oshiqroq vaqt davomida davom etgan. Bu ekspeditsiya orqali butun bir O'rta Osiyo to'g'risida ko'plab olimlarning va mamlakatlarning yurtimizga nisbatan salbiy fikrlari o'zgaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam Sergey Pavlovich Tolstovning yurtimizga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Aynan uning amalga oshirgan ishlari va ilmiy ekspeditsiyalari natijasida Xorazm hududining hali bizga no'malum bo'lgan qismi o'rganildi. Shu ekspeditsiya orqali bir qancha arxeologik qazishmalar olib borilgan va juda ham ko'plab buyumlar, shunga o'xshash narsalar topilgan. U bundan tashqari suv xo'jaligi va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq topolmalar ham topganligi ma'lum. "Suvsiz hayot yo'q, mehnatsiz rohat yo'q" degan xalq naqli teran ma'noga ega. Darhaqiqat yer yuzida suvsiz hayot bo'lmanidek, mehnatsiz ham qanot bo'lmaydi. Inson irodasiga bo'ysingan daryolar hayot manbaidir. Arxeologlar va tarixchilarining ilmiy ko'p yillik ilmiy izlanishlari natijasida sharq mamlakatlaridagi qishloq jamoalari suv xo'jaligi va qishloq xo'jaligi Tolstov tomonidan batapsil o'rganilgan. Tolstovning bиргина O'rta Osiyo xususan Xorazm vohasiga uyushtirgan ekspeditsiyasi unga talaygina imkoniyatlar eshigini ochdi. Aynan manashu ekspeditsiya orqali bir qancha davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi. Katta katta davlat lavozimlarida ishladi. Bir qancha ilmiy maqola, ilmiy asarlar muallifi va muharriri bo'ldi.